ЛЬГОТЫ ПО ПРЯМЫМ И КОСВЕННЫМ НАЛОГАМ И ИХ ГАРМОНИЧНОЕ СООТНОШЕНИЕ	915
Фаттоев Олимжон Гайрат ўғли	
O'ZBEKISTONDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINI QO'LLAB-QUVVATLASHNING KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHDAGI INSTITUTSIONAL MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	920
Ulashova Zarnigor Botirali qizi	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH.....	925
Abduraxmonov Valijon G'ofurovich, Yusupova Dilnigor A'zamjon qizi	
IQTISODIY TIZIMDA RISK VA UNING XUSUSIYATLARI TAHLILI.....	929
Nasimov Ravshanjon Azimovich	
INSON KAPITALIGA INVESTITSİYALARNI JALB QILISHNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	937
Zayniddinov Aloviddin Zayniddin o'g'li	
SOLIQ NAZORATINING AMALIYOTDAGI SAMARADORLIK JIHATLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	945
Nizomxonov Elbekxon Erkinxon o'g'li	
FISKAL MEKANIZMLARNING HUDUDIY RIVOJLANISHGA TA'SIR ETISH XUSUSIYATLARI.....	950
Ne'matov Ne'matulla Erkinboyevich	
ФИСКАЛЬНАЯ ПОЛИТИКА: ТЕНДЕНЦИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	955
Воронин Сергей Анатольевич, Ахмедова Фазилат Жураевна	
IMPROVING EMPLOYEE MOTIVATION AND DEVELOPING AN EFFECTIVE INCENTIVE SYSTEM IN HUMAN RESOURCE MANAGEMENT.....	962
Makhmudov Sunnatjon Abdujabbor ugli, Ashurova Jasmina Jo'ra kizi	



O'ZBEKISTONDA KO'P POG'ONALI PENSIYA TIZIMIGA O'TISHNING EKONOMETRIK TAHLILI VA MOLIYAVIY BARQARORLIK MODELLARI	966
Mamatqulova Yayra Dilmurod qizi	
SANOAT KORXONALARIDA IQTISODIY O'SISHNING TASHKILY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	971
Astanayev Kulmakhammad Sanayevich	



SANOAT KORXONALARIDA IQTISODIY O'SISHNING TASHKILIIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Astanayev Kulmakhammat Sanayevich

Associate Professor of IPU

k.s.astanayev@ipu-edu.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada mintqa sanoat korxonalarida iqtisodiy o'sishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish hamda sanoat korxonalarining iqtisodiy rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar tahlil qilingan. Shuningdek, sanoat korxonalarining samarali rivojlanishi ularning zamonaviy tarmoqlarini diversifikatsiyalash hamda zamonaviy sanoat mahsulotlari hajmini ko'paytirish asosida jamiyatda mehnat salohiyatini oshirish uchun muayyan ijtimoiy va iqtisodiy shart-sharoitlarni yaratish, aholi bandligini ta'minlash, yalpi ichki mahsulot hajmini oshirish, aholining sanoat mahsulotlariga bo'lgan talabini shakllantirish va mehnat taqsimotini kengaytirish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: iqtisodiy o'sish, sanoat korxonalari, YAIM, sanoat mahsuloti, tashkiliy-iqtisodiy mexanizm, aholi bandligi, ijtimoiy va iqtisodiy muammolar.

Abstract: This article analyzes the factors affecting the improvement of organizational and economic mechanisms for economic growth in industrial enterprises of the region and the economic development of industrial enterprises. Furthermore, the effective development of industrial enterprises is based on the diversification of modern industrial sectors and the increase in the volume of modern industrial products, creating specific social and economic conditions for enhancing labor potential in society, ensuring employment, increasing gross domestic product, shaping population demand for industrial products, and expanding the division of labor.

Key words: economic growth, industrial enterprises, GDP, industrial output, organizational and economic mechanism, employment, social and economic problems.

Аннотация: В статье анализируются факторы, влияющие на совершенствование организационно-экономических механизмов экономического роста промышленных предприятий региона и экономическое развитие промышленных предприятий. Также эффективное развитие промышленных предприятий базируется на диверсификации современных отраслей и увеличении объемов выпуска современной промышленной продукции, создании определенных социально-экономических условий для повышения трудового потенциала общества, обеспечения занятости населения, увеличения объема валового внутреннего продукта, формирования спроса населения на промышленную продукцию и расширения разделения труда.

Ключевые слова экономический рост, промышленные предприятия, ВВП, объем промышленного производства, организационно-экономический механизм, занятость населения, социально-экономические проблемы.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida sanoat korxonalari tobora barqaror mavqega ega bo'lib bormoqda. Ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda sanoat korxonalari ko'lami va uning yalpi ichki mahsulot tarkibidagi ulushi ortishi hisobiga iqtisodiy o'sish ta'minlanmoqda, sohada ish bilan bandlik ko'rsatkichi ko'paymoqda, xalqaro sanoat mahsulotlari savdosi rivojlanmoqda. «Dunyoda iqtisodiy o'sish 2022-yilda 3,4 %ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda 2,9 %ni, 2024-yilga kelib esa 3,1 %ni, rivojlangan mamlakatlarda bu ko'rsatkich 2023-yilda 1,2 %ni va rivojlanayotgan mamlakatlarda 4,0 %ni tashkil etishi prognoz qilinmoqda» [1]. Shu jihatdan ham bugungi kunda sanoat korxonalarida iqtisodiy o'sishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Sanoat korxonalarida iqtisodiy o'sishga erishish tajribalari negizida sanoat korxonalarida iqtisodiy o'sishni baholash mezonlari va ko'rsatkichlarini takomillashtirish, sanoat korxonalarida iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash, sanoat korxonalarida iqtisodiy o'sish tahlilini amalga oshirish, sohada iqtisodiy o'sishning samarali mexanizmlarini takomillashtirish, sanoat korxonalarining iqtisodiy rivojlanish istiqbollari belgilash kabi ilmiy muammolarni tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Hozirgi vaqtda jahon mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi uning samaradorligini baholashning muhim mezon sifatida ham makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va iqtisodiy o'sishga erishishni,



ham aholi turmush darajasining oshishiga olib kelmoqda. Iqtisodiy rivojlanishning sanoat taraqqiyotidan keyingi bosqichida iqtisodiy barqarorlikka erishish omillarining o'рни va ahamiyati o'zgarimoqda. Bunda innovatsion jozibadorlikni oshirish omili sifatida axborotlar, nanotexnologiyalar va inson kapitali asosiy resurslar (ishlab chiqarish omillari)ga aylandi. Raqamli iqtisodiyotning shakllanishida bevosita inson omili va salohiyatiga e'tibor qaratish hal qiluvchi rolga ega bo'lmoqda.

O'zbekistonda sanoat mahsulotlarini ko'paytirish va sifatini oshirish orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlash bo'yicha keng qamrovli iqtisodiy islohotlar olib borilmoqda. «Mahalliy sanoat mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirish va ularni diversifikatsiya qilish, hududlarning mavjud tabiiy va iqtisodiy resurslaridan unumli foydalanish asosida sanoat mahsulotlarini rivojlantirishning strategiya va modellarini ishlab chiqish» [2] muhim vazifalardan hisoblanadi. Bularning ustuvor vazifa sifatida belgilanishi sanoat korxonalarining iqtisodiy o'sishini ta'minlash muhimligini bildiradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Sanoat korxonalarini iqtisodiyotining shakllanishi, resurslardan samarali foydalanish, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, iqtisodiy va ijtimoiy samaradorlik hamda tashkiliy-iqtisodiy mexanizm masalalarining ilmiy asoslari xorijlik iqtisodchi olimlar tomonidan tizimli tadqiq etilgan. Xususan, P.F. Druker [3], B.Z. Milner [4], F. Xersberg [5] va boshqa olimlarning ilmiy ishlari shular jumlasidandir.

Shuningdek, sanoatni rivojlantirish va uning iqtisodiy o'sishini ta'minlash hamda sanoat mahsulotlari qiymatini yaratish zanjiri samaradorligini baholash bo'yicha MDH davlatlari olimlari — N.K. Vasilyeva [6], V. Paraxina [7], Y.V. Pilipuk [8]larning ilmiy ishlari natijalari ham e'tiborga molik sanaladi.

Respublikamizda ham A.M. Kadirov [9], M.A. Mahkamova [10], B.T. Salimov [11] kabi iqtisodchi olimlar tomonidan sanoat korxonalarini faoliyatini samarali rivojlantirish, sanoat mahsulotlarining iqtisodiy o'sishini ta'minlashga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan hamda e'tiborga molik ilmiy natijalarga erishilgan.

Mazkur olimlarning sanoatni barqaror rivojlantirishga qaratilgan nazariy ishlanmalari, taklif va tavsiyalarining ahamiyatini kamaytirmagan holda qayd etish zarurki, iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida sanoat korxonalarida mahsulot ishlab chiqarishning iqtisodiy o'sishini ta'minlash va samaradorligini baholash, sanoat korxonalarini klasterlarini tashkil etish hamda shakllantirish mexanizmlari va uslublarini takomillashtirish masalalari zamonaviy yondashuvlar asosida yetarli darajada tadqiq etilmagan. Mazkur holat ushbu yo'nalishda maqsadli ilmiy tadqiqotlar olib borishni taqozo etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mintaqa sanoat korxonalarida iqtisodiy o'sishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari hamda sanoat korxonalarida iqtisodiy o'sishni ta'minlashning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini oshirish masalalari tadqiq etildi. Shuningdek, hozirgi vaqtda sanoat korxonalarida iqtisodiy o'sishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini shakllantirish asosida uning iqtisodiy samaradorligini oshirishga doir tahlillarda induksiya va deduksiya, tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, jadval va grafik usullaridan foydalanildi. Tadqiqot natijalari asosida tegishli taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi hamda ushbu masalalar bugungi kunning dolzarb yo'nalishlaridan biri sifatida baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Sanoat korxonalarida iqtisodiy o'sishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirishning asosiy maqsadi — ushbu sohada iqtisodiy subyektlar faoliyati samaradorligini oshirishning harakatchan mexanizmini shakllantirish hisoblanadi. Bunda mazkur mexanizmni yuzaga chiqarish jarayonida soha korxonalarini boshqarishning iqtisodiy natijadorligini oshirish, ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlari sifatini yaxshilash va raqobatbardoshlikka erishish, iqtisodiy o'sish samaradorligini oshirishning iqtisodiy usullari va vositalarini takomillashtirish, xizmatlar bozorida tadbirkorlik subyektlari o'rtasida raqobat muhitini shakllantiruvchi omillarni tadqiq qilish, sanoat mahsulotlarining zamonaviy turlarini kengaytirish hamda ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlarining qulayligi va ommabopligini ta'minlash asosiy vazifalar hisoblanadi.

Sanoat korxonalarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajalari bo'yicha omillar tasnifi 1-jadvalda keltirilgan bo'lib, ular bir vaqtning o'zida ushbu sohani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish vositalari sifatida ham shakllanadi.

Sanoat korxonalarida iqtisodiy o'sishga erishish bo'yicha korxonalar va tashkilotlar xo'jalik faoliyatiga ta'sir etuvchi tashqi omillar quyidagilardan iborat:

- rivojlanishning ijtimoiy-iqtisodiy omillari: iqtisodiy o'sishga erishish, tarkibiy islohotlarni amalga oshirish;
- rivojlanishning innovatsion omillari: kadrlar salohiyatini oshirish, zamonaviy bilim va malaka ko'nikmalarini rivojlantirish;



- qonunchilik tizimini rivojlanish xususiyatlariga muvofiqlashtirish;
- raqobat muhitini shakllantirish;
- iste'molchilar ehtiyoj va talabini to'liq qondirish;
- xo'jalik subyekting roli hamda fors-major holatlar (tabiiy ofatlar, inqirozlar va boshqalar) asosida faoliyat o'zgarishining kutilmagan vaziyatlari.

Sanoat korxonalarida iqtisodiy o'sish va resurslarni samarali boshqarishni aniqlovchi ichki omillar quyidagilardan iborat:

- korxonalarining strategik rivojlanishi va ularning o'ziga xos xususiyatlarini belgilaydigan talablar. Xizmat ko'rsatish korxonasi strategiyasiga muvofiq boshqaruvning samarali strategiyasini ishlab chiqish hamda mehnat resurslaridan oqilona foydalanish bo'yicha maqsad va yo'nalishlarni aniqlash;
- korxonada tashkiliy madaniyatni shakllantirish. Korxonaning tashkiliy madaniyatini shakllantirish asosida eskirgan usullarni bekor qilish natijasida yuzaga keladigan oqibatlar sezilarli darajada murakkab bo'lishi mumkin;
- korxonadagi moliyaviy resurslardan foydalanish bo'yicha xarajatlarning maqbul darajasini aniqlash;
- resurslardan samarali foydalanishga yondashuvlar. Resurslardan foydalanish xo'jalik subyektlari tomonidan joriy etiladigan texnologiyalar hamda malakalar asosida shakllanib, korxonalarining rivojlanish imkoniyatlarini kengaytiradi;
- resurslarning miqdor va sifat xususiyatlari hamda ularning kelgusida o'zgarish imkoniyatlari xizmat ko'rsatish sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi;
- korxonaning hajmi va uning hududiy bo'linishi.

Hozirgi kunda sanoat korxonalari nafaqat alohida mamlakat iqtisodiyotida, balki butun jahon iqtisodiyotida ham muhim rol o'ynamoqda. Keyingi o'n yilliklarda xizmatlarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi va band bo'lganlar soni muntazam o'sib bormoqda (1-jadval).


1-jadval.

Sanoat korxonalarini barqaror rivojlanishining darajaviy omillari¹

Darajalari	Yo'nalishlari	
	Rivojlanishning iqtisodiy omillari	Rivojlanishning ijtimoiy omillari
Makrodarajada	Sanoat korxonalari tarmoqlari korxonalariga soliq imtiyozlari berish, ularni kreditlash tizimini soddalashtirish, sohada davlat investitsiyalari joziba-dorligi va samaradorligini oshirish, xizmatlar eksportini moliyaviy rag'batlantirish, sohada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, raqamli xizmatlar ko'rsatish hajmini oshirish, makrodarajada investitsion innovatsion siyosatni amalga oshirish, sohani rivojlantirish bo'yicha davlat dasturlarini ishlab chiqish.	Sanoat korxonalarida inson kapitalini rivojlantirish; mehnat salohiyatini oshirish, xizmatlar assortimentini kengaytirish; raqamli xizmatlar ko'rsatish bo'yicha kompetentlikni shakllantirish; sohada kadrlar salohiyatini oshirish bo'yicha davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, xizmatlar bozori konyunkturasini muvofiqlashtirish, milliy qadriyatlarini-mizga mos an'anaviy xizmatlar turlarini rivojlantirish.
Mezodarajada	Hududiy darajada sohani rivojlanishi bo'yicha investitsion siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish, sohani rivojlantirishning hududiy dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, hududlarda sohani rivojlantirish bo'yicha innovatsion-investitsion joziba-dorlikni oshirish.	Aholining turli ijtimoiy guruhlari uchun xizmatlarning ommabopligini ta'minlash, iste'molchilarni ko'rsatila-yotgan xizmatlardan qoniqish darajasini oshirish, hududlarda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishga mos kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish.
Mikrodarajada	Korxonalarda mehnat unumdorligini oshirish, mahsulot rentabelligi, asosiy va aylanma fondlar samaradorligini oshirish, xizmat ko'rsatishning intensiv omillarini aniqlash, xizmatlar xarajatlarini nisbiy darajasini kamaytirish, iqtisodiy samaradorlikni oshirish, mehnat sig'imini pasaytirish, innovatsiyalarni joriy qilish orqali korxonalar (firma) faoliyatini rivojlantirish.	Sanoat korxonalarida jarayonlari mazmundorligini oshirish, xizmat ko'rsatish salohiyatini rivojlantirish, personalning ijodkorligi va faolligini hamda xodimlar sifati takibini yaxshilash, personal kasbiy moslashuvini ta'minlash, mehnat sharoitlarini yaxshilash, ilg'or tajribalardan foydalanish, jamoadagi sog'lom muhit, xizmatlarni ko'rsatish-da madaniy saviy.

1 Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Sanoat korxonalarini boshqarishning umumiy nazariyasi va metodologiyasini ishlab chiqishda boshqaruvni rivojlantirishga sinergetik yondashuv taklif etildi. Taklif etilayotgan yondashuv elementlari hamda ularning o'zaro bog'liqlik yo'nalishlari quyidagi 1-rasmدا keltirilgan.



1-rasm. Sanoat korxonalarini rivojlantirishga sinergetik yondashuv tizimi²

Ushbu rasmda ko'rsatilganidek, taklif etilayotgan uslubiy yondashuvning asosiy elementlari sanoat korxonalarini kompleks rivojlantirish, ularning faoliyatini ko'p qirrali faollashtirish va zamonaviy boshqaruv usullarini ishlab chiqish sharoitida qator sinergetik samaralarni shakllantirish orqali moliyaviy-iqtisodiy samaradorlikni oshirishga qaratilgan.

Sanoat korxonalarini strategik rivojlantirishni boshqarishni takomillashtirish nuqtai nazaridan muallif tomonidan ishlab chiqilgan yondashuvning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

Innovatsion rivojlanishni boshqarishning aksariyat yondashuvlarida bo'lgani kabi, nafaqat mahsulot va texnologik yangiliklarni rivojlantirishga, balki xizmat ko'rsatish korxonalarining rivojlanish yo'nalishlari intensivligi va samaradorligini oshirishga ham e'tibor qaratish zarur. Bizningcha, respublikamizda zamonaviy iqtisodiyotning xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish quyidagi asosiy yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

– yangi boshqaruv usullari va tashkiliy boshqaruv tuzilmalarini joriy etish, sanoat korxonalarida tashkiliy madaniyat hamda madaniyatlararo aloqalarni rivojlantirishga oid zamonaviy yondashuvlarni qo'llash bilan bog'liq tashkiliy usullarni takomillashtirish;

– sanoat korxonalarida inson kapitalini rivojlantirish samaradorligini oshirish bilan bog'liq tadbirlar,

2 Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



jumladan, xodimlarni yollash, saralash va rivojlantirish jarayonlarini soddalashtirish, mehnatni moddiy va ma'naviy rag'batlantirishning yangi tizimlarini joriy etish, xodimlarning qo'shimcha ta'lim olishi uchun yangi texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish, operatsion jarayonlarni takomillashtirish va boshqalar;

- yangi va yuqori talabga ega xizmatlarni joriy etishni ifodalovchi mahsulot innovatsiyalarini amalga oshirish;
- sanoat korxonalarining ishlab chiqarish faoliyati uchun yangi va samarali uskunalari hamda texnologiyalarni joriy etish bilan bog'liq texnologik yangiliklar;
- sanoat korxonalarini uchun iqtisodiy tizimning joriy va uzoq muddatli (investitsion) faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlashning yangi usullari bo'lgan moliyaviy innovatsiyalar, shuningdek, moliyaviy boshqaruvning innovatsion mexanizmlari hamda uning zamonaviy, jadal rivojlanayotgan virtual kapital bozorlari bilan o'zaro ta'siri;
- ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlash usullarini ifodalovchi axborot yangiliklari hamda sanoat korxonalarini uchun yangi bo'lgan axborot rivojlanishini boshqarishning innovatsion tizimlari.

Sanoat korxonalarida inson kapitalini takror ishlab chiqarishni takomillashtirish bilan bog'liq innovatsiyalar ustuvor ahamiyatga ega ekanligini tan olish lozim. Taklif etilayotgan yondashuvning ushbu yo'nalishi bevosita inson potentsiali nazariyasidan kelib chiqadi. Mazkur nazariyaga ko'ra, inson kapitali turli darajadagi va ixtisoslashgan tizimlarning iqtisodiy o'sishidagi asosiy omil hisoblanadi.

Ta'kidlash lozimki, sanoat korxonalaridagi zamonaviy korxonalar va iqtisodiyotning davlat idoralari aksariyat hollarda inson kapitali bilan bog'liq innovatsiyalarni faollashtirishga yetarlicha e'tibor qaratmaydi, ishni rag'batlantirish uchun innovatsion texnologiyalarni, korporativ ta'limning yangi shakllarini va boshqa mexanizmlarni joriy etmaydi. Ushbu holatning asosiy sababi bunday tuzilmalarni boshqarishda xodimlarni rivojlantirish xarajatlarini tejashga ustuvor ahamiyat berilishidir. Biroq uzoq muddatli istiqbolda bunday tejamkorlik sanoat korxonalaridagi tashkilotlarning rivojlanishining moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini oshirishni cheklab qo'yadi. Jumladan, eng malakali kadrlarning chiqib ketishi, ishdan qoniqish darajasining pasayishi, xodimlarning kompaniya rivojlanish qadriyatlariga sodiqligi yetarli darajada bo'lmasligi kabi holatlar yuzaga keladi.

Sanoat korxonalaridagi innovatsiyalarning turli yo'nalishlari o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash, ularning o'zaro ta'siridan yuzaga keladigan sinergetik samarani maksimal darajada oshirish hamda shu asosda samaradorlikka erishish uchun qo'shimcha shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan. Taklif etilayotgan yondashuv paradigmasida innovatsion faoliyat muvozanatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

Bir tomondan texnologik va mahsulot innovatsiyalari, ikkinchi tomondan esa inson kapitalini rivojlantirish bilan bog'liq innovatsiyalar o'rtasidagi muvozanat. Ushbu turdagi muvozanatni ta'minlash tashkilotning operatsion va boshqaruv xodimlari malakasi ular tomonidan ishlab chiqilayotgan va amalga oshirilayotgan mahsulot hamda texnologik innovatsiyalarga mos bo'lishini nazarda tutadi. Aks holda, xodimlarning tajribasi va malakasi yetarli emasligi sababli sanoat korxonalarini innovatsion rivojlantirish samaradorligi sezilarli darajada pasayishi mumkin. Bunday muvozanatni ta'minlashning asosiy mexanizmi sanoat korxonalarida innovatsion ko'nikma va malakani oshirish hamda masofaviy elektron ta'lim tizimlaridan foydalanish samaradorligini oshirishdan iborat.

Sanoat korxonalarida ishlab chiqarilayotgan innovatsiyalarning tashkiliy va boshqa turlarini muvofiqlashtirish uchun sharoit yaratish. Bunday muvozanat boshqaruvning tashkiliy tuzilmasida tezkor o'zgarishlarni amalga oshirish, tashkiliy madaniyatni modernizatsiya qilish va boshqa jarayonlar uchun zarurdir. Joriy etilayotgan texnologik hamda mahsulot innovatsiyalari bilan mazmunan uyg'unlik ta'minlanishi lozim. Aks holda, ko'plab xizmat ko'rsatuvchi kompaniyalarning iyerarxik tashkiliy tuzilmasi mahsulot va texnologik innovatsiyalar samaradorligining potensial o'sishini cheklavchi muhim omilga aylanishi mumkin.

Milliy iqtisodiyotdagi sanoat korxonalarini innovatsion rivojlantirishning boshqa yo'nalishlari bilan moliyaviy innovatsiyalar muvozanatini ta'minlash. Shu bilan birga, zamonaviy biznes sharoitida xizmat ko'rsatish sohasini moliyaviy qo'llab-quvvatlashning zamonaviy usullari quyidagilardan iborat:

- virtual moliyaviy bozorlar salohiyatidan foydalanish, shu jumladan ICO mexanizmlarini qo'llash;
- moliyaviy vositalardan foydalanishni jadallashtirish (opsionlar, fyucherslar, varrantlar, svoplar);
- sanoat korxonalaridagi tashkilotlarning investitsion rivojlanishini ta'minlash uchun loyihaviy kreditlashning innovatsion tizimlarini joriy etish, bu esa an'anaviy uzoq muddatli bank kreditlash sxemalariga nisbatan istiqbolli hisoblanadi;
- sanoat korxonalarida davlat-xususiy sheriklik (DXSH) vositalarini qo'llash asosida innovatsion moliyalashtirish mexanizmlaridan foydalanish.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Iqtisodiy tizimlarga nisbatan sinergiya — bu tizimning tarkibiy va tashkiliy jihatdan turlicha bo'lgan ichki

elementlarining barqaror hamda uzoq muddatli o'zaro ta'siri natijasida qo'shimcha ijobiy moliyaviy, iqtisodiy va ijtimoiy samaralarning avtomatik ravishda shakllanishidir. O'zaro ta'sirning bunday ijobiy sinergiyasini yaratishning asosiy manbalari iqtisodiy tizimlar va ularning tarkibiy elementlarini o'z-o'zini tashkil etish jarayonlari, shuningdek, shu asosda hamkorlik va integratsiya uchun katta salohiyat hamda muhim ahamiyatga ega bo'lgan maxsus o'zaro bog'liq tuzilmalarni shakllantirishdan iborat. Shu bilan birga, ular tashqi muhitdagi ehtimoliy tebranishlarga nisbatan barqarorlikni ta'minlash imkonini beradi.

Respublikamiz ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining hozirgi bosqichida barqaror iqtisodiy o'sishga erishishning muhim sharti sifatida iqtisodiy o'sishni nafaqat miqdoriy, balki sifat jihatdan ham ta'minlaydigan samarali omillar tizimini shakllantirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bunday tizimni aniqlashda jahon iqtisodiyoti taraqqiyotining nazariy asoslari va umumiy qonuniyatlari bilan bir qatorda, milliy iqtisodiyotning hozirgi rivojlanish holati, iqtisodiy o'sish imkoniyatlari hamda mavjud cheklovlarini hisobga oluvchi o'ziga xos xususiyatlarni ham inobatga olish muhimdir.

Iqtisodiy o'sish omillarini aniqlash uning mazmuni va mohiyatini to'liq ochib berish orqali ta'minlanadi. Iqtisodiy o'sish mazmuniga oid yondashuvlar tahlili shuni ko'rsatadiki, uni tushunish va talqin etishda yagona yondashuv mavjud emas. Umumiy holda iqtisodiy o'sish mohiyatini aniqlashda quyidagi uchta asosiy yo'nalishdagi qarashlarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- iqtisodiy o'sish va iqtisodiy rivojlanish tushunchalarining o'zaro nisbati;
- iqtisodiy o'sishni miqdoriy va sifat jihatdan baholash;
- iqtisodiy o'sishni davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining ajralmas tarkibiy qismi sifatida qarash.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. <https://www.imf.org/ru/Blogs/Articles/2023/01/30/global-economy-to-slow-further-amid-signs-of-resilience-and-china-re-opening>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 9-sentabrdagi "Respublika oziq-ovqat sanoatini jadal rivojlantirish hamda aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'laqonli ta'minlashga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4821-son qarori.
3. Друкер П.Ф. Бизнес и инновации. – М.: Academia, 2009. – 221 с.;
4. Мильнер Б.З. Теория организации: Учебник. – 7-е изд., перераб. и доп. – М.: ИНФРА-М, 2009. – 864 с.; Портер М. Конкуренция. – М.: Вильямс, 2010. – 592 с.;
5. Херцберг Ф., Моснер Б., Блох Снидерман Б. Мотивация к работе. – М.: Вершина, 2007. – 240 с.;
6. Васильева Н.К., Мезина С.А., Воротникова А.М. Анализ финансового состояния предприятий пищевой промышленности // Вестник Академии знаний. – 2020. – № 2 (37). – С. 105–110;
7. Парахина Л.В. Управление ресурсосберегающей деятельностью и оценка ее эффективности на предприятиях пищевой промышленности: автореф. дисс. к.э.н. 08.00.05. – Орел, 2013. – 24 с.;
8. Пилипук А.В. Конкурентоспособность предприятий пищевой промышленности Беларуси в условиях построения Евразийского экономического союза. – Минск: Институт системных исследований в АПК НАН Беларуси, 2018. – 237 с.;
9. Кадыров А.М. Инновационный потенциал развития промышленных предприятий республики в условиях рынка // Научно-практическая конференция «Новое качество экономического роста: инновации, конкурентоспособность, инвестиции». – Т., 23 апреля 2018 г.;
10. Махкамова М.А. Формирование организационно-экономического механизма управления инновационной деятельностью на промышленных предприятиях Республики Узбекистан: дисс. док. экон. наук. – Т., 2004. – 291 с.;
11. Салимов Б.Т. Моделирование использования и развития производственного потенциала региона (на примере Сырдарьинской и Джизакской областей Республики Узбекистан): дисс. д-ра экон. наук. – Т., 1992.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100